

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc/03/29.12.2022/Ss.21.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

KASIMOV MUTALIB

AQSH VA POKISTON O'RTASIDAGI XAVFSIZLIK
MASALALARIGA AFG'ONISTON OMILINING TA'SIRI

23.00.04. – Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqa taraqqiyotining
siyosiy muammolari

Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

UO'K :327.5(73)+(549)+(581)
KBK :66.4(7 AQSH)+(533)
K-27

Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi (PhD)
avtoreferati mundarijasi

Оглавление авторферата диссертации доктора
философии (PhD) по политическим наукам

Content of Dissertation Abstract the Doctor
of philosophy (PhD) in political Sciences

Kasimov Mutalib
AQSh va Pokiston o'rtasidagi xavfsizlik masalalariga Afg'oniston
omilining ta'siri 3

Касимов Муталиб
Влияние афганского фактора на вопросы безопасности между США
и Пакистаном 23

Kasimov Mutalib
The impact of the Afghan factor on security issues between the United
States and Pakistan 43

E'lon qilingan ishlar ro'yxati
Список опубликованных работ
List of published works 47

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMiy DARAJALAR BERUVCHI
DSc/03/29.12.2022/Ss.21.02 RAQAMLI ILMiy KENGASH
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

KASIMOV MUTALIB

AQSH VA POKISTON O'RTASIDAGI XAVFSIZLIK
MASALALARIGA AFG'ONISTON OMILINING TA'SIRI

23.00.04. – Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqqa taraqqiyotining
siyosiy muammolari

Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2024.2.PhD/S473 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) ilmiy kengash veb-sahifasida (www.isuoz.uz) hamda «ZyONET» Axborot-ta'lim portalida (www.zyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Bo'ronov Suhrob Mahammadi o'g'li
siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponenlar:

Ubaydullaeva Saodat Fatxullayeva
siyosiy fanlari doktori, dotsent

Sadibaqojev Habibullo Shodiboy o'g'li
siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi DSc 03/29.12.2022 Ss.21.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «14» *sentabr* soat 14 daqiqa jallisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100060, Toshkent sh., Amir Temur ko'chasi, 20 uy. Tel.: (99871) 233-34-24; faks: (998971) 233-52-24; e-mail: sharq_ilmiy@mail.ru.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (S/L raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100060, Toshkent sh., Amir Temur ko'chasi, 20 uy. Tel.: (99871) 233-45-21.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «29» *avgust* kuni tarqatildi.
(2024-yil «23» *avgust* dagi № -raqamli reestr buyonnomasi).



D.B. Sayfullaev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
tarix fanlari doktori, professor

D.L. Madaminova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotiби, siyosiy fanlar doktori, dotsent

E.S. Sultonova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
huzuridagi Ilmiy seminar raisi, siyosiy fanlar
doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi xalqaro xavfsizlik tizimi gibrid shakldagi zamonaviy xavf-xatarlar va tahdidlarga dуч kelmoqda. Mazkur sharoitda dunyoning hech bir davlati xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikka doir masalalardan o'zini ayri va xoli deb tasavvur qila olmaydi. Chunki xalqaro tartibot qoidalarining izdan chiqayotgani, global xavfsizlik institutlari faoliyatidagi muammolar hamda davlatlararo ishonch inqirozining kuchayib borayotgani natijasida xavfsizlik masalalari bo'yicha o'zaro hamkorlik qilish zaruriyati har qachongidan ham dolzarb bo'lib bormoqda.

AQSh harbiy kuchlarining Afg'oniston hududidan rasman chiqib ketishi va «Tolibon» harakatining Kobul hokimiyatini qayta qo'lga kiritishi bilan bog'liq geosiyosiy sharoitda Afg'oniston omilining bugungi zamonaviy xalqaro munosabatlarga ta'sirini tadqiq etish ilmiy izlanishlarning asosiy e'tibor obyektiga aylanmoqda. Ayniqsa, bu tadqiqotlarda Afg'onistondagi vaziyatning xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikka ta'siri istiqbollari, Afg'onistonga daxldor kun tartibida AQSh va Pokiston singari aktorlarning o'zaro munosabatlari, shuningdek, Afg'oniston omilining ikki davlat o'rtasidagi xavfsizlik jarayonlariga ta'siri masalalarini ilmiy tadqiq etish zarurati kengayib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi qo'shni mamlakatlar, jumladan, Afg'oniston bilan yaxshi qo'shnihilik munosabatlari o'rnatib, ushbu o'lka va mintaqada tinchlikni ta'minlash borasidagi tashabbuskor sa'y-harakatlarini amalga oshirib kelmoqda. Zeroki, Afg'onistondagi xavfsizlik masalasi nafaqat Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekiston xavfsizligi, balki global xavfsizlikni ta'minlashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. «Afg'oniston xavfsizligi – bu O'zbekiston xavfsizligi, butun bepoyon Markaziy va Janubiy Osiy mintaqasi barqarorligi hamda taraqqiyotning garovidir. Xalqaro terroristik tashkilotlar Afg'onistonni o'zining doimiy makoniga aylantirib olishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi!». Shu sababdan ham Afg'onistondagi vaziyatga sezilarli ta'sir o'tkazayotgan mintaqaviy va yirik aktorlarining o'zaro munosabatlari va afg'on omilini tadqiq etish alohida dolzarblilik kasb etmoqda.

Ushbu dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son «O'zbekiston-2030» strategiyasi to'g'risida»gi, 2022-yil 28-fevraldagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmonlari; 2020-yil 10-noyabrdagi PQ-4892-son «Afg'oniston Islom Respublikasi bilan iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirish va mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2020-yil 16-apreldagi PQ-4680-son «Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

1. Ўзбекистон Республикаси Президентини Шайхат Мирзиёевнинг Афғонистон бўйича «Тинчлик жараёни, хавфсизлик соҳасида ҳамкорлик ва миттақавий периспектив» мавзусида ўтказилган халқаро конференциядаги нутқи. 27.03.2018. <https://president.uz/uz/lists/view/1601>

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, iqtisodiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalari tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston tashqi siyosati, xususan AQSh va Pokiston bilan ikki va ko'p tomonlama hamkorlik munosabatlari, Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirishga oid konseptual va strategik g'oyalari tadqiqotning ilmiy-metodologik asosini tashkil etadi.²

Dissertatsiyada ko'tarilayotgan masalalar va uning ayrim qismlari bo'yicha tadqiqotlarni uchta umumiy guruhga ajratish mumkin:

Birinchi guruh. A.Haydarov, I.Boboqulov, N.Kasimova, N.To'laganova, S.Jo'rayev, Sh.Akmalov, R.Alimov, P.A.Makkambayev, D.Sayfullayev, S.Ubaydullayeva, S.Bo'ronov, R.Rashidov, A.A.Umarov³ singari o'zbek olimlari tadqiqotlarida O'zbekiston tashqi siyosati va diplomatiyasi, Afg'on nizosini hal etishga qaratilgan O'zbekiston tashabbuslari, Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligiga afg'on omilining ta'siri, ushbu o'lkadagi harbiy-siyosiy vaziyat hamda Pokistonning Afg'oniston ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtiroki masalalari atroflicha tahlil qilingan.

Yuqorida tilga ilmiy ishlarda Afg'oniston omilining bevosita AQSh va Pokiston o'rtasidagi xavfsizlik masalalariga ta'siri borasida qisman so'z yuritilgan.

Ikkinchi guruh. Ushbu guruhi MDH olimlarining tadqiqotlari tashkil etadi. Afg'oniston masalasi bo'yicha rus olimlaridan V.Y.Belokrenskiy, R.R.Sikoyev, V.G.Korgun, A.A.Knyazev, V.V.Sergeev, A.V.Vorobyovlar⁴ning ilmiy tadqiqotlarida Pokistonning Afg'onistonga doir tashqi siyosatida "Tolibon" omili, Rossiya va Afg'oniston munosabatlari, Afg'oniston omilining Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligiga ta'siri tadqiq etilgan. Xususan, V.Y.Belokrenskiy, R.R.Sikoyev va A.V.Vorobyov tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlari tadqiqotimiz mavzusiga yaqin bo'lsa-da, ammo davriy jihatdan XX asr oxiri va XXI asr boshlaridagi ma'lumotlarni qamrab oladi.

Tojikistonlik olimlar N.M.Mirzoyev, S.S.Yatimov, R.Sh.Nuriddinov, Z.Sh.Saidov, R.G.Abdullo, V.V.Dubovskiy, G.M.Maydinova, A.Rahnamo, X.Xolliqazarovlar, qozog'istonlik olim S.Akimbekov, qirg'izistonlik olim

U.Saydaliyev⁵ tadqiqotlarida Afg'onistondagi vaziyatning Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligidagi o'rni masalalarini ochib berishgan.

Uchinchi guruh. G'arb olimlaridan B.Rubin, Th.Barfield, J.Perkin, F.Holt, M.Griffin, B.Hopkins, A.Cordesman, K.Katzman, L.Wily, P.Rogers, V.Schofield⁶ ilmiy izlanishlarida Afg'onistondagi ichki siyosiy jarayonlar, AQShning Afg'onistondagi strategik manfaatlari, "Tolibon" va unga tashki kuchlarning ta'siri kabi jihatlar atroflicha tahlil etiladi. Shuningdek, MRB faoliyatini tahlil qilish bo'yicha mutaxassis Tim Veyner, Hindiston milliy mudofaa vazirligi xizmatchisi J.Mehr, AQSh olimlaridan D.Xolmes va N.Dikson, Zamonaviy Afg'onistonni o'rganish markazining eksperti S.Poyya⁷ va boshqalar mavzu bo'yicha bugungi kunda faol tadqiqotlar olib borayotganligini ta'kidlash joiz.

Shuningdek, pokistonlik olimlardan Ahmad Rashid, Xolid Taymur Akram, Imron Xolid, Shobir Ahmad Xon, Doktor Muhammad Xon, Zohid Shahob Ahmad, Adam Saud, afg'onistonlik olimlardan Hasan Kokar, Nabi Misdoq, Amin Saykal, Abubakr Siddiq, Umar Nissar⁸ kabilari o'z ilmiy asarlarida "Tolibon" harakatining paydo bo'lishi, Pokistonning Afg'oniston bilan bog'liq manfaatlari, Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalarini o'zaro bog'lanishi muammolari, Afg'onistondagi ichki siyosiy o'zgarishlar, Pokiston va Afg'oniston munosabatlari pushtunlar masalasi xususida e'tibor molik ma'lumotlarni keltirib o'tishgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining II. "Markaziy va Janubiy Osiyo o'zaro bog'liqligining barqaror rivojlanish omillari va istiqbolli (O'zbekistonning tashabbuslari asosida)" amaliy tashabbuskor loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Afg'oniston omilining AQSh va Pokiston o'rtasidagi xavfsizlik masalalariga ta'sirini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardir:

Afg'oniston omilining mintaqaviy xavfsizlikka ta'sirini tadqiq etishga doir ilmiy izlanishlarni ochib berish;

Zamonaviy xalqaro xavfsizlik tizimida Afg'oniston omilini tadqiq etish;

2001-2021 yillarda AQSh-Pokiston munosabatlardagi Afg'oniston omilini tahlil etish;

AQSh va Pokiston o'rtasidagi xavfsizlik masalalarida "AfPok" strategiyasini yaratib berish;

Hozirgi davrda AQShning Afg'oniston bo'yicha tashqi siyosiy strategiyasini aniqlash;

Pokistonning hozirgi Afg'onistondagi harbiy-siyosiy vaziyatga ta'sirini ochib berish;

² Ushbu tadqiqotlar dissertatsiyaning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" qismida keltirilgan.

³ Ushbu tadqiqotlar dissertatsiyaning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" qismida keltirilgan.

⁴ Mitr J. America's Afghanistan War: The Success that Failed. 2004. Kalpaz Publications/Cyan Books. 329 p.; Holmes

D., Dixon N. Behind the U.S war on Afghanistan. 2001. - Resistance Book. P. 62. Itoif C. «Ilmuna /Дурулунуна» 60-let bes surpa. 05 Asp. 2010 / Itoif C. // Ипоест «Бее об Абруурурууе». - URL: <http://afghaniistan.ru/doc/17027.html>

⁵ Ushbu tadqiqotlar dissertatsiyaning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" qismida keltirilgan.

O'zbekistonning Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish AQSh va Pokiston davlatlari bilan hamkorligining o'ziga xos asoslarini ta'kidlash bilan bog'liq.

Tadqiqotning obyektini sifatida zamonaviy xalqaro va mintaqaviy xavfsizlik tizimiga Afg'oniston omilining ta'siri belgilangan.

Tadqiqotning predmetini Afg'oniston omilining AQSh va Pokiston o'rtasidagi xavfsizlik masalalariga ta'siri, jumladan AQShning "AfPak" va "PoKAF" strategiyasi, Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda O'zbekistonning AQSh va Pokiston davlatlari bilan amalga oshirayotgan hamkorligi masalalarini ta'kidlash etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tarixiylik, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, davrlashtirish, kuzatish, kontent va ivent-tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

AQShning 2001-2021 yillardagi Afg'oniston bo'yicha tashqi siyosatida mintaqaviy va xalqaro xavfsizlik masalalarini Pokiston bilan hamkorlik asosida hal qilishi, uning Afg'oniston muammosini harbiy yo'l bilan hal etishga qaratilgan amaliyotlari Afg'oniston va Pokistonni yagona makon sifatida ifodalagan "AfPak" va "PoKAF" strategiyasiga ko'ra asoslab berilgan.

Afg'onistondan AQSh harbiy qo'shinlarining rasman chiqib ketishi va "Tolibon" harakatining Kobul hokimiyatini qayta qo'lga kiritishi Pokiston uchun yangi imkoniyat omili sifatida qabul qilingani, biroq AQShning Afg'onistondagi strategik va xavfsizlik bilan bog'liq manfaatlarini ilgari suruvchi mintaqaviy aktorlar sifatida Qatar va Hindiston kabi davlatlarni jalb etish maqsadlari ustuvor bo'layotganligi AQShning Milliy xavfsizlik strategiyasi (2022) asosida isbotlangan.

Pokiston Islom Respublikasi va Afg'oniston Muvaqqat hukumati o'rtasidagi an'anaviy aloqalar de-fakto saqlab qolingan bo'lishiga qaraganda Afg'oniston va Pokiston o'rtasidagi chegaraviy ziddiyatlarning kuchayib borish tendensiyasi pushkunlarni ikki qismga ajratib yuborgan "Dyurand chizig'i"ning hal etilmagani va "Pokiston Tolibon Harakati"ning faollashuvi omiliga ko'ra dalillangan.

"O'zbekiston-2030" strategiyasida ko'zda tutilgan ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosatni izchil davom ettirish, O'zbekistonning Afg'onistonni Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalarini bog'lovchi ko'priki sifatidagi strategik qarashlaridan kelib chiqib, tashqi ishlar vazirlari darajasidagi "C5+S8" nomli Markaziy va Janubiy Osiyo birdamlik tashabbusini yo'lga qo'yish zarurati asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash yuzasidan O'zbekistonning AQSh va Pokiston bilan hamkorliklarini chuqurlashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan;

Markaziy va Janubiy Osiyo o'zaro bog'liqligini mustahkamlash, Afg'oniston bilan real vaziyatdan kelib chiqqan holda diplomatiyani yo'lga qo'yish va bu jarayonlarda AQSh va Pokistonning tashqi siyosiy strategiyasini hisobga olishga doir tegishli takliflar bildirilgan.

O'zbekiston tashqi siyosatidagi milliy manfaatlaridan kelib chiqib, Afg'onistonda barqarorlikni ta'minlash jarayonlarida faol ishtirok etish va bu jarayonlarda AQSh va Pokiston bilan hamkorlik qilish yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallarida, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va

innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK ro'yxatiga kirgan maxsus jurnallar va xorijiy ilmiy konferensiyalar materiallarida e'lon qilinganligi, amaliyotda joriy qilingani va vakolatli idoralar tomonidan tegishli tartibda tasdiqlanganligi bilan ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ma'lumotlardan oliy o'quv yurtlaridagi o'quv jarayonida "Sharq mamlakatlaridagi xavfsizlik muammolari", "Xalqaro xavfsizlik", "Geosiyosat", "Jahon siyosati", "Axborot xavfsizligi", "Zamonaviy xalqaro munosabatlarning mintaqaviy jihatlari", "Zamonaviy xalqaro munosabatlarda O'zbekiston manfaatlari" kabi fanlarni ilmiy-nazariy jihatdan boyitish hamda mavzuga doir ilmiy loyihalar va tadqiqotlarda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyat tadqiqot materiallari va xulosalaridan tegishli vazirlik va idoralar, sohaga oid mutaxassislar tomonidan tahliliy materiallar tayyorlashda, shuningdek oliy ta'lim muassasalarida siyosiy fanlarga oid darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishda foydali bo'lib hizmat qilitishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. AQSh va Pokiston o'rtasidagi xavfsizlik masalalariga Afg'oniston omilining ta'siri bo'yicha olingan tadqiqot natijalari asosida:

"O'zbekiston-2030" strategiyasida ko'zda tutilgan ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosatni izchil davom ettirish, O'zbekistonning Afg'onistonni Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalarini bog'lovchi ko'priki sifatidagi strategik qarashlaridan kelib chiqib, tashqi ishlar vazirlari darajasidagi "C5+S8" nomli Markaziy va Janubiy Osiyo birdamlik tashabbusini yo'lga qo'yish zarurati borasidagi xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining axborot-tahliliy hujjatlarini tayyorlashda Janubiy Osiyo, Yaqin, O'rta Sharq va Afrika mamlakatlari bilan hamkorlik boshqarmasi tomonidan foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining 2024-yil 2-iyuldagi 18-126/20307 sonli dalolatnomasi). Natijada dissertatsiyada bildirilgan ilmiy xulosalar, taklif va tavsiyalar sohaga oid axborot-tahliliy bazani takomillashtirishga va amalda qo'llashga xizmat qilgan.

AQShning 2001-2021 yillardagi Afg'oniston bo'yicha tashqi siyosatida mintaqaviy va xalqaro xavfsizlik masalalarini Pokiston bilan hamkorlik asosida hal qilishi, uning Afg'oniston muammosini harbiy yo'l bilan hal etishga qaratilgan amaliyotlari Afg'oniston va Pokistonni yagona makon sifatida ifodalagan "AfPak" va "PoKAF" strategiyasiga ko'ra asoslanganligi xususidagi ilmiy xulosalardan O'zbekistonda Shanxay hamkorlik tashkiloti Xalq diplomatiyasi markazining xalqaro tadbirlarni tashkil etish jarayonlarida foydalanilgan. (O'zbekistonda Shanxay hamkorlik tashkiloti Xalq diplomatiyasi markazining 2024-yil 7-iyundagi 269/24-sonli dalolatnomasi). Natijada olingan ilmiy xulosalar, taklif va tavsiyalar "Shanxay hamkorlik tashkiloti mamlakatlari: tarixiy muhtarlik va hamkorlik istiqbollari" mavzusidagi xalqaro konferensiyasiga doir tahliliy materiallarni tayyorlashga xizmat qilgan.

Afg'onistondan AQSh harbiy qo'shinlarining rasman chiqib ketishi va "Tolibon" harakatining Kobul hokimiyatini qayta qo'lga kiritishi Pokiston uchun yangi imkoniyat omili sifatida qabul qilingani, biroq AQShning Afg'onistondagi strategik va xavfsizlik bilan bog'liq manfaatlarini ilgari suruvchi mintaqaviy aktorlar sifatida Qatar va Hindiston kabi davlatlarni jalb etish maqsadlari ustuvor bo'layotganligi AQShning Milliy xavfsizlik strategiyasi (2022) asosida isbotlangani xususidagi xulosalardan

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasining ilmiy-amaliy konferensiya, davra subbatlari, shuningdek, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarini tashkil etishda foydalanilgan. (*O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasining 2024-yil 20-iyundagi 14-07-995 sonli dalolatnomasi*). Dissertatsiyaning natijalari asosida bildirilgan xulosalar O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini mustahkamlashga xizmat qiladigan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishga yordam bergan.

Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalarini bog'lanishda Afg'oniston omilining ustuvor o'rni va ahamiyatidan kelib chiqqan holda, Transafg'on transport koridorini amalga oshirishga to'siq bo'layotgan omillarni aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan ilmiy-amaliy xulosalarni ishlab chiqish maqsadida TDSHU huzurida Janubiy Osiyo tadqiqotlarini tashkil etish taklifi xususidagi xulosalardan "Markaziy va Janubiy Osiyo o'zaro bog'liqligining barqaror rivojlanish omillari va istiqboli (O'zbekistonning tashabbuslari asosida)" amaliy tashabbuskor loyihasi doirasida foydalanilgan. (*IL-5221091507 "Markaziy va Janubiy Osiyo o'zaro bog'liqligining barqaror rivojlanish omillari va istiqboli (O'zbekistonning tashabbuslari asosida)" mavzusidagi amaliy loyihasining 2024-yil 28-iyundagi 01-04-01/1442 sonli ma'lumotnomasi*). Natijada tadqiqotda ilgari surilgan taklif va tashabbuslar loyiha doirasida chop etilgan tahliliy materiallarni tayyorlashga va tegishli tashkilotlarga taqdim etishga xizmat qilgan.

Pokiston Islom Respublikasi va Afg'oniston Muvaqqat hukumati o'rtasidagi an'anaviy aloqalar de-fakto saqlab qolingan bo'lishiga qaraganda Afg'oniston va Pokiston o'rtasidagi chegaraviy ziddiyatlarining kuchayib borish tendensiyasi pushunlarni ikki qismga ajratib yuborgan "Dyurand chizig'i"ning hal etilmagani xususidagi xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Milliy teleradiokompaniyasining "O'zbekiston tarixi" telekanalida efriga uzatilgan "Tarixiy savol" ko'rsatuvini tayyorlashda foydalanilgan. (*O'zbekiston Respublikasi Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" telekanali tomonidan berilgan 2024-yil 11-iyundagi 06-31-726-sonli dalolatnomasi*). Natijada ushbu ko'rsatuv Afg'oniston va Pokiston o'rtasidagi tarixiy munosabatlar evolyusiyasi, ikki tomonlama munosabatlardagi ziddiyatli masalalarning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilik va aholiga ilmiy tarzda yetkazishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 3 ta xalqaro, 2 ta respublika miqyosidagi anjumamlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola (2 ta xorijiy, 5 ta respublika jurnallarda) e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning tadqiqot qismi 141 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, mavzu bo'yicha xorijiy adabiyotlar sharhi amalga oshirilgan, mavzuning o'rganilganlik darajasi hamda uning dissertatsiya ishi bilan bog'liqligi bayon qilingan, ishning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti belgilangan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi hamda asosiy tadqiqot usullari ko'rsatib berilgan, olingan natijalarning ishonchilligi asoslangan holda, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, shuningdek, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprotatsiya va e'lon qilingan ishlar keltirilgan.

Tadqiqotning "**Xalqaro va mintaqaviy xavfsizlik tizimida Afg'oniston omilini tadqiq qilishning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikning kompleks yondashuvlari, siyosiy xavfsizlik, iqtisodiy xavfsizlik, harbiy xavfsizlik, ekologik va ijtimoiy xavfsizlik tushunchalari Afg'oniston misolida tadqiq etilgan. Shuningdek, mazkur bobda "Imperiya qabristoni", Sovet-Afg'on urushi, AQSh qo'shinlarining Afg'oniston hududiga kirishi va chiqib ketishi hamda "Tolibon" harakatining Kobul hokimiyatini qo'lga kiritish jarayonlarining mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikka ko'rsatgan ta'siri masalalarini tadqiq etishda realizm va liberalizm mumtoz maktablari tahlil qilinadi.

Xavfsizlik masalalariga oid ilmiy izlanishlar orasida Kopengagen maktabi alohida ahamiyat kasb etadi. Unda xavfsizlik tushunchasi va mohiyatiga nisbatan kompleks yondashuvlar ilgari suriladi. Kopengagen maktabining yirik vakili, xavfsizlikka oid nazariyalari bilan tanilgan olim Barri Buzan xavfsizlik, jumladan mintaqaviy xavfsizlik tushunchalariga kompleks yondashish lozimligini ta'kidlaydi. U xavfsizlikning 5 ta asosiy jihati ajratib ko'rsatadi: siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ekologik va ijtimoiy xavfsizlik. Buzanning nuqtayi nazariga ko'ra, mintaqaviy xavfsizlik nafaqat harbiy aspektlarni tahlil qilishni, balki turli o'lovlarining o'zaro bog'liqligini o'rganishni taqozo etadi⁹. Buzan qarashlariga muvofiq fikr yuritib, Afg'onistonning siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ekologik va ijtimoiy xavfsizligi bilan bog'liq har qanday omillar mintaqaviy xavfsizlik doirasida tadqiq etilishi lozimligi yaqqol ayon bo'ladi. Olimning xavfsizlikka kompleks yondashish xususidagi fikrlariga tayangan holda Afg'oniston sharoitidan kelib chiqib, yuqoridagi 5 ta xavfsizlik turlariga yana 3 ta muhim jihatlarni qo'shishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

1. Etnik xavfsizlik: o'z ichiga millatlar va etnoslararo totuvlik va hamjihatlikni qamrab oladi. Afg'onistonda 30 dan ortiq millat va elatlar istiqomat qiladi. Ammo, o'lkadagi etnik xavfsizlikni ta'minlash uzoq yillardan buyon samarasiz bo'lib kelmoqda. Bunga 1747-yildan buyon Kobul hokimiyati (Bachayi Saqo va Burxoniddin Rabboniy boshqaruvi bundan istisno) pashunlar tomonidan boshqarib kelinyotgani, qolgan boshqa oz sonli etnik vakillarga nisbatan murosasiz kayfiyatining mavjudligi hamda keng etnoslar vakillarining davlat boshqaruvidagi

⁹ Buzan B., Waever O., de Wilde J. Security: A New Framework for Analysis. L. 1998. - 240 p. https://www.academia.edu/39047709/Buzan_Waever_and_De_Wilde_1998_Security_A_New_Framework_For_Analysis

ishtirokini o'zaro tenglik asosida taqsimlanmagani singari sabablar o'z ta'sirini o'tkazib kelmoqda.

2. Diniy xavfsizlik: ushbu tushuncha jamiyat hayotida vijdon erkinligi va diniy bag'rikenglikning ta'minlanganlik holatini anglatadi. Islom omili Afg'onistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning fundamental-mafkuraviy asosi bo'lib, u davlat boshqaruviga to'g'ri ta'sir ko'rsatadi.

3. Geosiyosiy xavfsizlik: ushbu tushuncha mintaqaviy xavfsizlikning tarkibiy qismi sifatida tashqi kuchlarning ma'lum bir hudud yoki makonga ta'siri va xavflarini oldini olishga qaratilgan holati hisoblanadi. Afg'oniston sharoitida geosiyosiy xavfsizlikni mintaqaviy xavfsizlikning bosh sharti sifatida qabul qilish lozim. Zeroki, tashqi kuchlarning aynan Afg'oniston va uning atrofidagi o'z ta'sirini kuchaytirishga qaratilgan siyosati geosiyosiy xavfsizlikni ta'minlash zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Imperiya qabristoni. Afg'oniston zaminiga ko'z tikkan, uning ustidan harbiy-siyosiy nazorat o'rnatish va shu orqali Yevroosiyo makoniga ta'sir ko'rsatishni maqsad qilgan imperiyalar, shu jumladan o'z davrining yirik kuch markazlari ushbu o'lkani mag'lubiyatga uchragan holda tark etishdi. Shu boisdan soha olimlari va mutaxassislari Afg'onistonni "Imperiya qabristoni" deb atashadi. Shu tashbehning o'zi Afg'oniston hududining xalqaro xavfsizlikka naqadar daxl qiluvchi kuchli omil bo'lgani va ekanligidan dalolat beradi. Amerikalik harbiy jurnalist, ofitser Set Jonson "Imperiya qabristoni. AQShning Afg'onistondagi urushi" nomli kitobida Aleksandr Makedonskiy davridan toki AQShning Afg'oniston hududiga kirgan paytlarigacha bo'lgan davr o'zaro qiyosiy tahlil etilib, muallif muhim bir xulosani keltirib o'tadi. Kitob xulosasida dunyoning turli sarhadlarida jang qilib mag'lubiyat nimaligini bilimgan, yengilmas armiyaga ega bo'lgan Aleksandr Makedonskiy, Britaniya imperiyasi va SSSR kabi davlatlar aynan Afg'onistonda qaqshatqich mag'lubiyatga uchrangani sabablari tadqiq etilar ekan, Qo'shma Shtatlar Afg'onistonning ana shunday harbiy tarixidan kerakli saboq chiqarishi lozimligi qayd etiladi.¹⁰

Bugungi Afg'oniston Rossiya-Ukraina va Yaqin Sharqdagi Falastin-Isroil urushlari tufayli jahon hamjamiyati e'tiboridan biroz pastki o'rinlarga tushgan bo'lsa-da, biroq u hali o'z dolzarbligini aslo yo'qotgani yo'q. Afg'oniston omilining xalqaro xavfsizlikka, dunyodagi kattayu kichik mamlakatlar, Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqaviy xavfsizligiga ta'siri yaqin istiqbolida ham davom etadi. Afg'onistonni yakkalab qo'yish va undagi muammolarga e'tiborsiz bo'lish 90-yillardagi kabi xatolarni takrorlanishiga olib kelishi mumkin. Shu boisdan Afg'oniston omilining xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikka ta'sirini doimiy ravishda kuzatib, baholash lozimdir.

Dissertatsiyaning "**AQSh va Pokiston o'rtasidagi munosabatlarda xavfsizlik masalalari (2001-2021 yillar)**" deb nomlangan ikkinchi bobida AQShning Afg'onistondagi strategik manfaatlari, xalqaro terrorizmga qarshi kurash masalalari, 2001-2021 yillarda AQSh va Pokiston munosabatlarida Afg'oniston omilining o'rni va ahamiyati, jumladan AQShning "AIPok" va "PokaF" strategiyalari tadqiq etilgan.

AQShda 2001-yil 11-sentyabrda yuz bergan hodisalardan so'ng Pokistonga bo'lgan qarashlar o'zgarib, u AQShning Janubiy Osiyodagi tayanchiga aylandi. Bir oy davomida Pokistonga yordam ko'rsatish bo'yicha oldingi qo'yilgan cheklolvar olib tashlandi. Pokiston ham o'z navbatida mamlakatdagi bir qator ekstremistik tashkilotlar — "Lashkari toyba", "Sipohi Sahoba", "Tehrike Jafriye Pokiston", "Tehrike Shariate Pokiston", "Joishe Muhammad" va ularning yuzlab shahobchalari faoliyatini ta'qiqldi, ularning bankdagi mablag'larini muzlatib qo'ydi, 2 mingdan ortiq ekstremistlarni hibsga oldi hamda madrasalar faoliyatini ustidan nazorat o'rnatdi. Ammo, Qo'shma Shtatlar 2011-yilda Pokiston hududida ushbu davlatni boxabar qilmasdan xalqaro terrorchi Usoma Ben Lodinni yo'q qilish bo'yicha amaliyot o'tkazgach, Islomobod rahbariyati o'z kadrlarini AQShda tayyorlash dasturini bekor qildi hamda 135 nafar amerikalik maslahatchilarni mamlakattan chiqarib yubordi. Bunga javoban Amerika Pokistonga 300 mln dollar hajmidagi yordam ko'rsatishdan bosh tortdi.¹¹

AQSh afg'on mojarosidagi o'z harbiy ishtirokini to'xtatishga qaror qilib, Afg'onistondagi hodisalar rivojlanishiga asosiy mas'uliyatni hududdagi mintaqaviy aktorlar zimmasiga yuklashga ishora qilgan vaqtga¹² tabiiyki, bunga Afg'onistonga o'z ta'sirini ko'proq o'tkaza oladigan Pokiston davlati asosiy da'vogarlik qilar edi. Shu boisdan AQSh va "Tolibon" o'rtasidagi muzokaralarda Pokistonning sezilarli tarzda faol bo'lgani bejizga emas edi. Jumladan, 2018-yilda "Tolibon" harakatining taniqli vakillaridan biri Mulla Abdulg'ani Barodarning Pokiston qamoqxonasidan ozod qilinib, "Tolibon"ning Qatardagi Doha siyosiy mahkamasi rahbari sifatida e'lon qilinishi AQSh va Pokiston davlatlari Afg'oniston ustidan vaqtinchalik maxfiy kelishuvga kelgan, degan xulosani bildirar edi. Ammo, vaqt o'tib bu "kelishuvlar" Pokistonning manfaatlariga zid kelganligi ayon bo'la boshladi.

AQSh va Pokiston o'rtasidagi xavfsizlik masalalari asosan Qo'shma Shtalarning Afg'onistondagi strategiyasiga chambarchas bog'liq bo'lib kelgan. 2021-yildan so'ng esa AQShning mintaqadagi harbiy ta'siri kamayishi, o'z navbatida Xitoyning mintaqaviy o'sish sur'atlari hamda Xitoy-Rossiya-Eron geosiyosiy uchrashuvining vujudga kelishi ehtimollari AQSh va Pokiston o'rtasidagi xavfsizlik masalalari dolzarbligini yaqqol ko'rsatib beradi. Ikki davlat munosabatlaridagi Afg'oniston omili bir tomondan, mintaqaviy xavfsizlik, boshqa tomondan xalqaro xavfsizlik istiqbollari uchun nihoyatda ahamiyatli hisoblanadi. Bu masalaning yechimi Afg'onistonga bevosita, unga qo'shni mamlakatlarga esa bilvosita ta'sir o'tkazishi mumkinligi AQSh va Pokiston o'rtasidagi xavfsizlik masalalarini muntazam o'rganib borishni taqozo etadi.

Amerika va Pokiston o'rtasidagi xavfsizlik masalalariga bo'lgan yondashuvlarni "AIPok" tushunchasi orqali ko'rib chiqish ayni shu jihatlar alohida bilan ajralib turadi. Chunki bu ikki mamlakat o'rtasidagi har qanday munosabatlarda, ularning qanday kechishida Afg'oniston omili doimiy mavjuddir. Ushbu tushunchaning muallifi amerikalik mashhur diplomat Richard Xolbruk bo'lib, agar demokratlar amerikaliklarning ko'pchilik ovozi qo'liga kiritilgan, ushbu shaxs Afg'oniston va

¹¹ U.S. relations with Pakistan. U.S. Department of State. August 15, 2022. <http://www.state.gov/r/pa/ci/bgn/3453.htm>

¹² Blinken says US withdrawal from Afghanistan will concentrate the minds of 'free riders' in the region // CNN, 30.04.2021. URL: <https://edition.cnn.com/2021/04/27/politics/blinken-tapper-the-lead/index.html>

¹⁰ Jones G.Seth. In the Graveyard of Empires. American war in Afghanistan. New York, 2010. — p.327.

Pokiston bo'yicha AQSh prezidentining maxsus vakiliga aylanishi borasidagi xabarlar 2007-yilda paydo bo'lgan edi. 2008-yilda R.Xolbruk Afg'oniston va Pokistonni yagona harbiy siyosiy makon sifatida idrok etish lozimligini quyidagicha bayon qildi:

- Afg'oniston-Pokiston chegaralari hududida harbiy harakatlarning yagona makoni mavjudligi;

- Afg'oniston va Pokiston o'rtasida 1893-yilda qabul qilingan "Dyurand chizig'i"¹³ bo'yicha chegara muammolarining hal qilinmaganligi;

- "Tolibon" harakati va terrorchilik tarmoqlari tomonidan Afg'oniston va Pokiston o'rtasida (eng avvalo "qabilalar hududlarida") ochiq chegara tartibidan foydalanilganligi¹⁴.

AQSh va Pokiston o'rtasidagi xavfsizlik masalalarida ko'p tilga olinadigan "AfPak" tushunchasi 2009-yil davomida amerikaliklar tahlillarida ommalashib bordi. "Washington Post" gazetasi "AfPak"dagi urush" turkumi ostida nashrlar berish loyihasini boshladi¹⁵. "New America Foundation" jamg'armasi va "Foreign Affairs" jurnali yanada ko'lamliroq tashabbus bilan chiqib, buni "AfPak kanali (The AfPak Channel) deb nomladilar, bu esa Afg'oniston va Pokistondan olinadigan yangiliklarni yagona "media majmuasi" tarzida berilishini anglatar edi¹⁶. Mana shu tarzda "AfPak" jahon akademik va siyosatchilari doirasida keng qo'llanila boshladi.

Ammo, "AfPak" loyihasi Islomobodda norozilik uyg'ondi. Pokistondagi ommaviy axborot vositalari bu tushunchani Britaniya saltanatida mustamlakachi hukumatlar qo'llagan iboraga qiyosladilar. Bundayda keskinroq fikrlar ham bayon qilinganini kuzatish mumkin. Pokistonlik tahlilchilar Afg'oniston va Pokistonni bir-biriga o'xshatish Vashington bilan hamkorlik qilish hisobiga mintaqada yetakchilik roliga da'vogarlik qilayotgan Hindistonga qo'l kelishi borasidagi fikrlarni ilgari sura boshladilar¹⁷.

Shu sababdan amerikalik mutaxassislar "AfPak" tushunchasini isloh qilishga urinib ko'rishdi. Amerika Xalqaro ishlar bo'yicha kengashi B.Obama ma'muriyatiga boshqacha iborani – "PakAF" (PakAF) iborasidan foydalanishni tavsiya etadi. Bu ko'rinishda Pokiston terrorchilikka qarshi uyushmalar bo'yicha AQShning asosiy hamkori sifatida yuzaga chiqadi. Bunday holatda esa NATOning Afg'onistondagi vazifasi Afg'oniston-Pokiston o'zaro hamkorligiga bo'ysundirilgan tarzda namoyon bo'ladi. Ammo, Oq uy ushbu takliflarni qabul qilmaydi. 2010-yilning bahoriga kelib "AfPak" tushunchasiga ikki yoqlama munosabat vujudga keladi. B.Obama ma'muriyati rasmiy darajada ushbu iborani iloji boricha qo'llamaslikka intildi.

¹³ Dyurand chizig'i – 1893-yili Britan-hind hukumatining tashqi ishlar bo'yicha koribi Mortimer Dyurandning Afg'oniston amiri Abdurahmonxon bilan kelishuviga asoslan o'rnatilgan hind-afg'on chegarasining dashtaliki nomidir. 1919-yildagi Ravalpindi tinchlik bitimi shartlariga ko'ra Afg'oniston "britan chegara komissiyasi belgilariga" ko'ra chegarani tan olish majburiyatini e'tirof etgan. 1947-yili Pokiston mustaqillikka erishgach "Dyurand chizig'i" Afg'oniston va Pokiston o'rtasidagi chegaraga aylangan – M.Q.

¹⁴ Quinion M. "AfPak" [Electronic resource] // World Wide Words [Official website]. August 27, 2009. URL: <http://www.worldwidewords.org/turnsofphrase/tp-afp1.htm> (accessed: 05.06.2013).

¹⁵ Obama's War Combating Extremism in Afghanistan and Pakistan [Electronic resource] // The Washington Post [Official website]. URL: <http://www.washingtonpost.com/wp-srv/special/afghanistan-pakistan>

¹⁶ The AfPak Channel. Inside the Struggle for South Asia. A Special Project of Foreign Policy with the New America Foundation [Electronic resource] // Foreign Policy [Official website]. URL: <http://afpak.foreignpolicy.com>

¹⁷ Quinion M. "AfPak" [Electronic resource] // World Wide Words [Official website]. August 27, 2009. URL: <http://www.worldwidewords.org/turnsofphrase/tp-afp1.htm> (accessed: 05.06.2013).

Xususan, bu ibora 2010-yildagi "AQSh "Milliy xavfsizlik strategiyasi" matnida uchramaydi. Ushbu hujjatda faqat terrorchilik va "Al-Qoida"ga qarshi kurash, ham Afg'oniston, ham Pokiston hududida, jumladan, Afg'oniston va Pokiston o'rtasidagi chegara atrofidagi muhim ekanligi ko'rsatib o'tilgan xolos¹⁸. Shu tariqa, AQShning "AfPak" strategiyasi o'zini oqlamadi.

"AQSh va Pokiston o'rtasidagi xavfsizlik masalalarida hozirgi Afg'oniston omil" deb nomlangan uchinchi bobda AQSh prezidentlari Donald Tramp va Jozef Baydenning Afg'oniston bo'yicha strategiyalari, AQSh va "Tolibon" muzokaralari va erishilgan kelishuvlar, Pokistonning bugungi Afg'onistondagi harbiy-siyosiy vaziyatga ta'siri hamda Afg'onistonda mustahkam tinchlik va barqarorlik o'rnatishda O'zbekistonning AQSh va Pokiston bilan amalga oshirayotgan hamkorligi masalalari tadqiq etilgan.

AQShning Afg'onistondagi strategiyasini chuqur tushunish va tadqiq etish uchun Donald Tramp strategiyasi, Afg'oniston sobiq prezidenti Ashraf G'ani boshqaruvining so'nggi yillari, "Tolibon" bilan o'tkazilgan ko'p raundlik muzokaralar va 2021-yildan keyingi hodisalarning sabablariga sinchiklab e'tibor qaratishtir o'rini bo'ladi. Bu borada Amerika madadiga suyangan Ashraf G'ani hokimiyatining "Tolibon" harakatiga tranzit qilinishi va AQSh qo'shinlarining chiqib ketish hodisasi kabi voqealar bir-biri bilan chambarchas bog'liq ekanligidan dalolat bermoqda.

Amerikalik siyosatchilar va ekspertlarning Pokistonga bo'lgan munosabati ikki yoqlama deyish mumkin: ular Pokistonga ushbu hududda AQSh maqsadlarini amalga oshirish uchun vosita sifatida va ayni vaqtda bu maqsadlarga erishish yo'lidagi to'siqlar manbai sifatida qarashadi¹⁹. AQSh o'z manfaatlariga mos ravishda Islomobodga ta'sir o'tkazish orqali uning xatti harakatlarini o'zgartirish maqsadlari ham yo'q emas. Ta'sir o'tkazish vositalari turlicha bo'lib, bulardan biri Pokistonni Amerikaning "NATOdan tashqaridagi asosiy ittifoqchisi" maqomidan judo qilishdir (Pokiston 2004-yildan boshlab Amerikaning "NATOdan tashqaridagi asosiy ittifoqchisi" maqomiga ega, shunday maqom 2012-yilda Afg'onistonga ham berilgan – M.Q.). Chunki bunday maqomga ega bo'lish AQSh hamkorlariga imtiyozli tarzda harbiy-texnik vositalarni olishga imkon beradi. Shuningdek, iqtisodiy yordamni qisqartirish, Pokistonni terrorchilik homiylari davlatlari jumlasiga kiritib qo'yish ham Pokistonga ta'sir o'tkazish vositalaridandir²⁰. Tilga olingan choralar Amerikadagi bir qancha yetakchi "Aql markazlari" – Bruksing intituti, "Meros" jamg'armasi, Hadson instituti ekspertlarning tavsiyalariga hamohangdir²¹.

Jo Bayden prezidentlikka kelganidan keyin AQShning Afg'oniston bo'yicha siyosatida bir qator o'zgarishlar kuzatila boshladi. AQSh Afg'oniston hududidan o'z

¹⁸ National Security Strategy. May 2010 [Electronic resource] // The White House [Official website]. URL: http://www.whitehouse.gov/sites/default/files/rss_viewer/national_security_strategy.pdf

¹⁹ Markey D.S. Reorienting U.S. Pakistan Strategy: From Af-Pak to Asia. Council of Foreign Relations. Council Special Report № 68. – Washington D.C.: Council on Foreign Relations, 2014. P. 9–14. URL: [https://cfr.org/sites/default/files/pdf/2014/01/Reorienting_US_Pakistan_Strategy_CSR68.pdf](https://cfr.org/files.cfr.org/sites/default/files/pdf/2014/01/Reorienting_US_Pakistan_Strategy_CSR68.pdf).

²⁰ Secretary of State Rex Tillerson Press Availability. U.S. Department of State. 22 August 2017. URL: <https://www.state.gov/secretary/remarks/2017/08/272577.htm>

²¹ Haqqani H., Curtis L. A New U.S. Approach to Pakistan: Enforcing Aid Conditions without Cutting Ties. Hudson Institute Briefing Paper. – Washington D.C.: Hudson Institute, February 2017.

harbiy kuchlarini rasman olib chiqib ketganidan so'ng, ushbu o'lka Washington strategiyasidagi ustuvorlikdan bir qadar pastki o'rinlarga tushdi, deb baholash mumkin. Bunga Rossiya-Ukraina va Yaqin Sharqning G'azo sektorida boshlangan urushlar AQSh oldida Afg'oniston masalasini keyingi o'rinlarda muhokama etilishiga olib kelgan sabablar bo'lib xizmat qildi. Hattoki, buning rasmiy tasdiqini Bayden ma'muriyati tomonidan 2021-yil mart oyida tashkil etilgan AQSh Milliy xavfsizligi bo'yicha Muvaqqat strategik boshqarma hujjatlaridan ko'rish mumkin. Unga oid hujjatda Afg'oniston atigi ikki marta takrorlanib, Pokiston esa umuman tilga olinmaydi²². Demak, Bayden boshqaruvidagi Milliy xavfsizlik strategiyasi aynan shu vaqtdan boshlab Afg'onistomni AQShning xavfsizlik strategiyasi bo'yicha ustuvor yo'nalishlari qatoridan chiqara boshlagan bo'lishi mumkin.

Afg'onistondan AQSh harbiy qo'shinlarining chiqib ketishi va "Tolibon" harakatining Kobul hokimiyatini qayta qo'lga kiritishi yangi geosiyosiy hodisa o'laroq mintaqa davlatlarini bir tomondan qiziqitirib, ikkinchi tomondan tashvishga tushira boshladi. Bular orasida Afg'onistonga o'zining an'anaviy ta'siri, shuningdek, u bilan eng katta chegarasi mavjudligi, etnosiyosiy hamda "Tolibon" omili orqali alohida ajralib turadigan Pokiston davlati uchun mazkur geosiyosiy hodisalar yangi imkoniyat sifatida namoyon bo'ldi. Zeroki, mintaqa davlatlaridan Afg'onistonga siyosiy, iqtisodiy, etnik, diniy va boshqa omillar bilan ta'sir etishda katta rolga ega davlat birinchi navbatda Pokiston bo'lishi mumkin edi.

Amerikani Afg'onistondan harbiy kuchlarini olib chiqib ketishi va uning "Tolibon" bilan kelishuvga erishishi Pokiston uchun dastlab tarixiy, geosiyosiy va geoiqtisodiy jihatdan imkoniyat sifatida qabul qilindi:

Tarixiy omillar. Pokistonning Afg'onistondagi harbiy-siyosiy vaziyatga ta'siri, shuningdek, "Tolibon" bilan muzokaralardagi vositachilik rolini aniqlashda retrospektiv yondashuvga, ya'ni biroz tarixga yuzlanish o'rinli bo'ladi. Pokiston terrorchilikka qarshi xalqaro harakatlar amalga oshirilgan butun yillar (2001-2014 yillar) davomida va mamlakatda xavfsizlik uchun mas'uliyatni ta'minlash afg'on qurolli tuzilmalari qo'lga o'lgan 2015-yildan boshlab Afg'oniston mojarosini harbiy ish-tirokisiz hamda muzokaralarda aholining barcha qatlamlari, shu jumladan "Tolibon" harakati vakillari ishtirokida hal qilishni yoqlab kelgan.

Geosiyosiy imkoniyatlar. Tabiiyki, AQShning Afg'oniston hududini "tark etishi" va "Tolibon" vakillarining Kobul siyosiy sahnasiga kelishi Pokiston oldida Afg'onistonga o'z ta'sirini kuchaytirishi uchun "yashil chiroq" ochib berishi va bu keyinchalik mintaqada Hindistonning ta'sirini cheklash imkoniyatini taqdim etishi mumkin edi. Taxmin qilish mumkin, Islomobod maxsus xizmatlari va "Tolibon" harakati o'zaro hamkorlikda boshqa tashkilotlarni Kashmir hududlariga yo'naltirish va Hindistonning mintaqadagi mavqeviga sezilari putur yetkazishi ehtimollari yanada kuchayishi mumkin edi.

Geoiqtisodiy imkoniyatlar. "Tolibon"ning hokimiyatga kelishi Islomobod rasmiylari tomonidan 1990-yillarda reja qilingan Markaziy Osiyo mintaqasi bozorlariga chiqish, transport-logistika, neft va gaz resurslarini Pokistonga

Afg'oniston orqali olib kelish maqsadimi ro'yobga chiqarar edi. Ayni shu sababdan AQSh harbiy kuchlarining Afg'oniston hududidan chiqib ketishi holatida Pokiston "Tolibon" bilan mavjud an'anaviy aloqalaridan foydalangan holda Afg'oniston ustidan ta'sir o'tkazish maqsadlarini ishlab chiqqa boshladi.

